

O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI MUNOSABATLARIDA NOVERBAL MULOQOTNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Rahmonova Dildora Mahammataliyevna

Andijon viloyati Ulug‘nor tuman

6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatida noverbal muloqot va uning o‘rni haqida so‘z boradi. Unda emotsiya va his-tuyg‘ularni so‘zsiz yetkazish mumkinligi va buni amalga oshiruvchi paralingvistik vositalar haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, noverbal aloqa almashinuvi, verbal suhbat, paralingvistik vositalar, mimika, intonatsiya, kommunikatsiya, kinesika.

*Aqllimisan, yoki ahmoq, kattamisan yo kichik,
buni bir so‘z aytmaguningcha bila olmaymiz.*

Sa’diy Sheroziy

Inson muloqot qilganida nafaqat og‘zaki ma’lumotlarni tinglaydi, balki bir-birining ko‘zlariga qarashni, ovoz, intonatsiya, yuz ifodalari, imo-ishoralarni sezadi. So‘zlar orqali ma’lumotlar mantiqan ifodalansa, imo-ishoralar, yuz ifodalari, ovoz bu ma’lumotlarni to‘ldirib keladi, ma’nosiga ma’no qo‘shadi. XX asr oxirida noverbal muloqot qilish bo‘yicha yangi ilmiy-ijtimoiy mutaxassis degan kasb turi paydo bo‘ldi. U insonlarning turli xil joy va vaziyatlardagi noverbal muloqotlarini, paralingvistik signallarni kuzatadi, masalan, ishda, ko‘chada, televideniya va boshqalar. Bundan tashqari u odamlarning hatti-harakatlarini va xulq-atvorlarni ham o‘rganadi. Bu orqali u insonlarning o‘zaro munosabatlarini qanday yaxshilash mumkin ekanligi to‘g‘risida tadqiqot olib boradi. Shunday qilib, noverbal kommunikatsiyaning asosiy jihatlari faqat 60-yillarning boshidan jiddiy o‘rganilishni boshladi, ommaga esa 1970- yilda Yuliy Fast o‘zining kitobini e’lon qilganidan keyingina ma’lum bo‘ldi. Ushbu kitobda 1970-yilgacha olimlar tomonidan qilingan noverbal muloqotning muhim jihatlari bo‘yicha tadqiqotlari sarhisob qilindi va ommaga taqdim etildi. Albert Meyerabian kuzatuvlari natijasi shuni ko‘rsatdiki, inson ma’lumotlarni verbal vositalar yordamida 7% (faqat so‘zlar bilan), ovoz orqali (ovoz toni, intonatsiya) 38 foiz va noverbal vositalar yordamida esa 55 foiz bayon etadi. Professor Berdvisllning tadqiqot natijasiga ko‘ra esa, bir kishi so‘z bilan kuniga o‘rtacha hisobda 10-11 daqiqa gapiradi va har bir jumla o‘rtacha 2,5 soniyadan oshmaydi.¹ Ko‘pgina tadqiqotchilarning

¹ Abdurazzakova, M. (2023). NOVERBAL MULOQOT VA UNING KOMMUNIKATSIYADAGI O‘RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (2), 535-540.

ta’kidlashlaricha, verbal va noverbal vositalar insonlararo turli ma’lumotlarni uzatishda alohida, ba’zan birgalikda faol qo’llanadi. O’quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o’z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa so’zlashishni bilish lozim. So’zlashishni, muloqot olib borishni doimo o’rganib borishi lozim.² Shuningdek, u darsni samarali olib borishni, so’zlashishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilar bilan muloqotni yo’lga qo’ya olishi lozim.

Muloqot - yunoncha so’z, so’zlashuv, suxbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv, og’zaki nutq shakli, ikki yoki undan ortiq shaxslarning so’zlashuvidir. O’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi muloqot bo’lishi uchun o’qituvchi yetarli darajada qobiliyatga ega bo’lishi kerak. Noverbal muloqot- so’zlar yordamisiz amalga oshiriladigan muloqot ko’pincha ongsiz ravishda yuzaga keladi. U verbal muloqotni to’ldirib va kuchaytirib kelishi yoki aksincha, unga zid bo’lishi va susaytirib kelishi mumkin. Noverbal muloqot ongsiz jarayon hisoblansa-da, bugungi kunda u yetarlicha o’rganilmoqda va bu sohada muvaffaqiyatli natijalarga erishilmoqda. Paralingvistik aloqa almashinuvi muloqotning eng qadimiy va fundamental shakli hisoblanadi. Otabobolarimiz bir-birlari bilan ko’pincha tana harakatlari, yuz ifodalari, ovoznining tembri va intonatsiyasi, nafas olish tezligi, qarashlar yordamida aloqa qilishgan. Biz ham hozir bir-birimizni so’zsiz tushuna olamiz. Paralingvistik muloqot verbal muloqot kabi yuqori darajada tuzilgan sistemaga ega emas. Imo-ishoralar, yuz ifodalari, intonatsiyalarning umumiy qabul qilingan lug’atlari va tartib qoidalari (grammatikasi) yo’q. Paraverbal tilning bir qismi universaldir: barcha chaqaloqlar bir xil tarzda yig’laydilar va kuladilar. Boshqa qismi, masalan, imo-ishoralar, madaniyatdan madaniyatga farq qiladi. Noverbal muloqot odatda o’z-o’zidan paydo bo’ladi. Biz odatda o’z fikrlarimizni so’zlar shaklida shakllantiramiz, lekin bizning ongimizdan tashqari, bizning holatimiz, yuz ifodalarimiz va imo-ishoralarimiz ham beixtiyor ifoda kasb etadi, ya’ni: “Siz so’z bilan aldashingiz mumkin, lekin ovozingiz bilan alday olmaysiz!” Har bir inson paralingvistik muloqotning ba’zi parametrlarini boshqarishi mumkin. Ammo barcha parametrlarni nazorat qilish hech qachon mumkin emas, chunki odam bir vaqtning o’zida 5-7 tadan ko’p bo’lmagan omillarni yodda tutishi mumkin. Emotsiya va his-tuyg’ularni so’zsiz yetkazish mumkin. Paraverbal til ham og’zaki muloqotda qo’llanadi. Uning yordami bilan:

- og’zaki uzatilgan ma’lumotlarni tasdiqlash, tushuntirish yoki rad etish;
- ongli yoki ongsiz ravishda axborotni uzatish;
- emotsiya va his-tuyg’ularni ifoda etish;
- suhbatning borishini tartibga solish;
- boshqa shaxslarni nazorat qilish va ta’sir qilish;

² Polvonnazir Masharipovich Saparov, & Sarvar Bahrom Ogli Otayev (2021). O’QITUVCHI VA O’QUVCHILAR O’RTASIDAGI MULOQOT. *Scientific progress*, 2 (8), 783-785.

-so‘zlarning yetishmasligini to‘ldirish mumkin (masalan, velosiped haydashni o‘rganayotganda).

Suxbat jarayonida suxbatdoshlarning fazoviy joylashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologlar asosan suxbatdoshlar orasidagi masofani quyidagicha tavsiflaydi:

15-40 santimetr-bu masofa suxbatdoshlar orasida uchta tuyg‘uni uyg‘otishi mumkin: tajovuzkorlik, ishonchsizlik, juda yaqin intim tuyg‘ulari. Bunday masofadan so‘zlayotgan kishi samimiy bo‘lmasligi, yolg‘on so‘zlashi, g‘iybat qilishi kuzatiladi. Ota-bobolarimiz bunday yaqin turishni «bejo masofa» deb qoralashgan.

70-80 santimetr-bu masofani «do‘stona masofa», deb nomlashadi. Haqiqatdan ham, bu masofa bir-biriga qo‘l yetar oraliqqa teng bo‘ladi. Bu masofada turgan shaxslar bir-biriga ijobiy munosabatdaligini ko‘rsatadi va ishonchsiz gaplarga ongsiz ravishda yo‘l bermaydi.

120-150 santimetr masofa «hurmat masofasi», deb nomlanadi. Bu masofadan turib suhbatlashadigan shaxslar bir-birining shaxsiyatiga daxl qilmaydi. Ota-bobolarimiz aytganiday ular «bir-birlarining soyasini bosmaydilar».

Muloqot o‘zining maxsus masalalari hal etiladigan ma‘lum davrlarga ega. Eng mas‘uliyatli davr tayyorgarlik davri – muloqotni rejalashtirish, o‘zi uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – aloqaga [kirishish](#). Bunda vaziyatga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his etish, o‘zi kirishib ketib, boshqasiga ham yo‘nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr ruhiy aloqa o‘rnatilishi bilan yakunlanadi. So‘ngra [qandaydir muammo](#), tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda diqqatni jamlash davri boshlanadi.

Keyingi bosqich – motivatsion zondaj. Uning maqsadi – suxbatdoshning motivlari va qiziqishlarini anglash. So‘ngra diqqatni mustahkamlash bosqichi boshlanadi, keyin esa fikrlarda nizolilar bo‘lsa, asoslash va ishontirish bosqichi keladi. Va, nihoyat, natijalarni [qayd etish bosqichi](#) boshlanadi. Agar mavzular ko‘rib chiqilgan bo‘lsa yoki sherik notinchlik alomatlarini namoyon qilgan taqdirda muloqotni yakunlash zarur. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so‘zlar, qarashlar, qo‘l siqishlar o‘ta muhimdir, ba’zida ular ko‘p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin.

O‘QITUVCHI BILAN O‘QUVCHI MUNOSABATI

Maqsad: O‘qituvchi-o‘quvchi metodi asosida jamoada psixologik muhitni o‘rganish.

Jihoz: Test, javob varaqasi, sekundomer.

Yo‘riqnoma: Har bir keltirilgan mulohazani diqqat bilan o‘qing va o‘qituvchingiz bilan munosabatingizga mos kelishi hamda mos kelmasligiga ko‘ra «HA» yoki «YO‘Q» deb javob bering

1. O‘qituvchim shogirdlarining yutuqlarini oldindan ko‘ra oladi.
2. O‘qituvchimga murojat etish men uchun qiyin.
3. O‘qituvchim adolatli inson.
4. O‘qituvchim menga bilim berishga mohirona yondashadi.
5. O‘qituvchimning o‘quvchilar bilan munosabatlarida aniqlik yetishmaydi.
6. O‘qituvchimning so‘zi men uchun qonun.
7. O‘qituvchim men bilan qunt qilib ishlaydi.
8. Men o‘qituvchimdan minnatdorman.
9. O‘qituvchim menga nisbatan talabchan emas.
10. O‘qituvchim doimo yaxshi maslahatlar beradi.
11. Men o‘qituvchimga to‘liq ishonaman.
12. O‘qituvchimning menga qo‘ygan bahosini qadrlayman.
13. O‘qituvchim bir xil ishlashga o‘rganib qolgan.
14. O‘qituvchim bilan ishlashdan mamnunman.
15. O‘qituvchim menga kam vaqt ajratadi.
16. O‘qituvchim mening xususiyatlarimni bilmaydi.
17. O‘qituvchim mening kayfiyatimni bilmaydi.
18. O‘qituvchim mening so‘zlarimni doimo tinglaydi.
19. O‘qituvchimni yaxshi o‘rgatishiga ishonaman.
20. Men o‘qituvchimga so‘z aytishga jur‘at etolmayman.
21. O‘qituvchim kichkina aybim uchun ham jazolaydi.
22. O‘qituvchim mening kuchli va kuchsiz tomonlarimni yaxshi biladi.
23. Men o‘qituvchimga o‘xshashni xoxlayman.
24. Men o‘qituvchim bilan oshkora suhbatlasha olaman.

Natijalar taxlili:

- | | | |
|---------------------------------|----------------------|-------------------|
| I. Gnostik jihatlar: | «Ha»-1,4,7,10,19,22, | «Yo‘q»-13,16 |
| II. Emotsional jihatlar: | «Ha»-8,11,14,23, | «Yo‘q»-2,5,17,20 |
| III. Xulqiy jihatlar: | «Ha»-3,6,12,18, | «Yo‘q»-9,15,21,24 |

Anketa kalitiga mos kelgan javoblarga 1 ball beriladi. Agar sizning balingiz keltirilgan qiymatlarni biriga teng bo‘lsa ushbu faoliyat jihatlarini namoyon bo‘lishini quyidagi tartibda baholash mumkin:

6-8 ball-yuqori darajada;
1-5 ball-o‘rta darajada;
0-2 ball-past darajada

I.Gnostik. Bu jihat yetakchilik qilgan pedagogning faoliyati asosan shogirdlarga bilim berishga, ularning egallayotgan sohasi bo‘yicha savodxonligini oshirishga, ko‘proq ma‘lumotlar bilan qurollantirishga qaratilgan. Ularning nuqtai nazaricha

o‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi shogirdlarini xulq-atvori, atrofdagilar bilan munosabatidan ko‘ra bilim berish muhim deb hisoblaydi.

2. Emotsional. Bu jihat yetakchilik qilgan o‘qituvchi o‘quvchilarni narsa va hodisalarga, atrofdagilarga munosabat ko‘nikmalarini shakllantirish muhim degan xulosaga egalar. Ular uchun o‘qituvchi o‘quvchini hayotiy holatlariga tayyorlash, shaxslararo munosabatlarga kirishishga o‘rgatish kerak bo‘lgan shaxsdir. Ularda o‘zaro ishonch va hurmat tuyg‘ularini shakllantirish lozim degan mulohaza bor.

3. Xulqiy. O‘quvchilarni birinchi navbatda to‘g‘ri-noto‘g‘ri nima, ularni xatti-harakatlarini tartibga solish, mas’uliyat va javobgarlik hissini shakllantirish, o‘zaro hurmat, qadr-qimmat va insonlarni e‘zozlash lozimligini anglatadi.

Lev Nikolayevich Tolstoy ta’kidlaganidek: “Agar o‘qituvchida faqat ishga muhabbat bo‘lsa, u yaxshi o‘qituvchi bo‘ladi. Agar o‘qituvchi o‘quvchiga faqat otana kabi mehri bo‘lsa, u barcha kitoblarni o‘qigan, ammo o‘z ishiga ham, o‘quvchilarga ham mehri bo‘lmagan o‘qituvchidan yaxshiroq bo‘ladi. Agar o‘qituvchi o‘zida ishga va o‘quvchilarga bo‘lgan mehrni birlashtirsa, u mukammal o‘qituvchiga aylanadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurazzakova, M. (2023). NOVERBAL MULOQOT VA UNING KOMMUNIKATSIYADAGI O‘RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (2), 535-540.
2. Polvonnazir Masharipovich Saparov, & Sarvar Bahrom Ogli Otayev (2021). O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILAR O‘RTASIDAGI MULOQOT. *Scientific progress*, 2 (8), 783-785.
3. Beisswenger, M. *Chat Communication. Language, Interaction, Sociality and Identity in Synchronic Computer Communication. Perspectives for Interdisciplinary Research Field [Text] // M. Beisswenger. - Stuttgart, 2001. - 552 p.* 5. Chukharev, E.M. *Linguostatistical Correlates for Spontaneity in ComputerMediated Discourse (On the Basis of Russian Chat): Synopsis of Diss. ... Cand. of Philology: 10.02.21 [Text] / E.M. Chukharev. - Sankt-Petersburg: Herzen University, 2009. - 23 p.*